

Date: 3rd March-2026

ULUG'BEK HAMDAM "OTASH" HIKOYASINING BADIY TAHLILI VA TALQINI

Inoyatova Durdona

Samarqand davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Nazarova Hilola**

Tel: +998770650619

Email manzili: durdonainoyatova750@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek nasrining yirik namoyandalaridan biri Ulug'bek Hamdamning "Otash" hikoyasi badiiy-falsafiy va psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Asarda muhabbat, yolg'izlik, xotira va o'lim motivlari o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladi. Otash obrazi orqali yozuvchi inson qalbidagi eng nozik va iztirobli kechinmalarni ochib beradi.

Kalit so'zlar: otash, modernistik poetika, psixologizm, ramziylik, ichki monolog, ekzistensializm, muhabbat fojiaiyiligi, yolg'izlik, ruhiy iztirob, badiiy talqin, ong oqimi, daraxt.

Annotation: This article provides a literary, philosophical, and psychological analysis of the short story "Otash" by one of the prominent representatives of modern Uzbek prose, Ulugbek Hamdam. The themes of love, loneliness, memory, and death are presented in an interconnected and harmonious manner. Through the image of Otash, the author reveals the most delicate and painful experiences of the human soul.

Keywords: otash, modernist poetics, psychologism, symbolism, internal monologue, existentialism, tragic nature of love, loneliness, spiritual suffering, artistic interpretation, stream of consciousness, tree.

Аннотация: В данной статье представлен художественно-философский и психологический анализ рассказа "Оташ" одного из ярких представителей современной узбекской прозы — Улутбек Хамдам. В произведении в органическом единстве раскрываются мотивы любви, одиночества, памяти и смерти. Через образ Оташа писатель передаёт самые тонкие и трагические переживания человеческой души.

Ключевые слова: Оташ, модернистская поэтика, психологизм, символизм, внутренний монолог, экзистенциализм, трагизм любви, одиночество, духовные страдания, художественная интерпретация, поток сознания, дерево.

Kirish

Zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan ijodkorlardan biri — Ulug'bek Hamdamdir. U zamonaviy o'zbek nasri va adabiy tanqidchiligida o'ziga xos ijodiy uslubi, chuqur psixologik tahlilga boy asarlari bilan ajralib turadi. Ijodkor asarlarida inson ruhiyati, jamiyat va shaxs munosabatlari, ma'naviy-axloqiy izlanishlar, hayotiy ziddiyatlarni modernistik tafakkur bilan yoritishga harakat



Date: 3rd March-2026

qiladi. Ulugʻbek Hamdam ijodining muhim jihatlaridan biri — badiiy tafakkur va falsafiy mushohadalarning uygʻunligidir. Uning asarlarida voqelik faqat tashqi hodisa sifatida emas, balki inson ichki dunyosi orqali talqin qilinadi. Yozuvchi ijodida inson ruhiy olamini ochib berishga xizmat qiluvchi ramziy va metaforik tasvirlar muhim oʻrin tutadi. Uning “Muvozanat”, “Isyon va Itoat”, “Sabo va Samandar” kabi romanlari, “Uzoqdagi Dilnura” qissa va hikoyalar toʻplami XX asr oʻzbek adabiyotida oʻz oʻrniga ega. Shuningdek, “Tangriga eltuvchi isyon”, “Atirgul” va “Seni kutdim” sheʼriy toʻplamlari, “Badiiy tafakkur tadriji”, “Yangilanish ehtiyoji”, “Yangi oʻzbek sheʼriyati” nomli monografiyalari ham nashr etilgan. Ulugʻbek Hamdam zamonaviy oʻzbek adiblari orasida asarlari boshqa tillarga koʻp oʻgirilayotgan va Oʻzbekistondan tashqarida eʼtirof etilayotgan oz sonli ijodkorlardan biridir. Uning “Isyon va itoat” romani, “Yolgʻizlik” qissasi, oʻnga yaqin hikoyasi va sheʼrlari ruschaga tarjima qilindi. Ijodkorning “Tosh” degan hikoyasi va bir qancha sheʼrlari ingliz tiliga oʻgirildi. “Muvozanat” romani va “Tosh” hikoyasi Amerikada eʼtirof etildi.

Ijodkorning hikoya va romanlarida oddiy hayotiy voqealar ortida yotgan maʼnaviy-maʼrifiy mazmunni ochib berish ustuvor hisoblanadi. U insonning yolgʻizlik, hayot mazmunini izlash, ijtimoiy muammolar oldidagi ichki kurashlarini badiiy obrazlar orqali yoritadi. Shu bois uning asarlari kitobxonlarga estetik zavq berish bilan birga, chuqur tafakkur qilishga ham undaydi. Zamonaviy oʻzbek adabiyotida inson ruhiyati, ichki kechinmalari va mavjudlik muammolari tobora markaziy mavzuga aylanmoqda. “Otash” hikoyasi ana shu ruhiy-falsafiy yoʻnalishning yorqin namunasi boʻlib, unda tashqi voqealardan koʻra ichki iztirob, xotira va ong oqimi ustuvorlik qiladi. Kompozitsion jihatdan asar real voqelik (shifoxona manzaralari), xotira va tush lavhalari, ramziy tasvirlar (daraxt obrazi), ichki monologlar orqali qurilgan. Voqealar chiziqli emas, balki ruhiy oqim asosida rivojlanadi. Bu uslub asarning psixologik taʼsirini kuchaytiradi.

Asar mazmuni qisqacha shunday: “Otash” hikoyasida bosh qahramon — Otabek (Otash) ismli rassomning soʻnggi kunlari, uning ruhiy iztirobi, armonli muhabbati va ichki parchalanishi tasvirlanadi. U ogʻir kasallik tufayli shifoxonada yotadi va umrining sanoqli kunlari qolganini bilib qoladi. Uning butun hayoti Soliya ismli ayolga boʻlgan muhabbat bilan chambarchas bogʻliq. U hush va tush oraligʻida oʻz oʻtmishini, ayniqsa Soliya bilan bogʻliq xotiralarini qayta yashaydi. Hikoya bir qarashda ogʻir xastalik bilan kurashayotgan rassomning fojeasi kabi koʻrinsa-da, aslida u insonning muhabbat bilan yashashi va muhabbatsiz soʻnishi haqidagi chuqur falsafiy asardir. Otash uchun Soliya oddiy ayol emas — u Vatan, maʼno, yashash sababi. “Soliya, sen mening qaytishim mumkin boʻlgan yagona joyim, munis Vatanimsan!.. Biroq oʻzing qaydasan? Doʻxtirlar kunim bitib qolganini aytishmoqda, chaqirsam, kelasanmi? Soliya, bu mening sendan oxirgi ilinjim, oʻtinaman: kel! Toki men begona yurtlarda xor-zor boʻlib oʻlib ketmay. Senga — Vatanimga qaytib, shu quchoqda jon beray, Soliya!..”¹ U butun ijodini ham, hayotini ham Soliyaga bagʻishlagan. Daraxt obrazi esa uning ichki olamining ramziga aylangan. Hikoya davomida daraxt va Soliya siymosi bir-biriga qorishib ketadi. Asar fojiali yakun bilan tugaydi. Soliyaning beparvoligi, dunyoviy tashvishlarga berilib ketgani Otashning qalbini butunlay sindiradi. U oʻz ustaxonasini, suratlarini va oʻz hayotini olovga topshiradi.



Date: 3rd March-2026



“Otash” — epik turga mansub **psixologik hikoyadir**. Hikoyaning janriy belgilarini hajman ixchamlilik, voqeaning bitta asosiy konflikt atrofida qurilishi, qahramon ruhiyatiga chuqur kirib borish, hayotning muayyan bir fojiaiy lahzasini yoritish tashkil etadi. Asar realistik asosda yozilgan bo‘lsa-da, unda modernistik tasvir usullari kuchli. Ya’ni voqelikdan ko‘ra ong oqimi, tushlar, ichki monologlar va ramziy obrazlar yetakchi o‘ringa chiqadi. Otash (Otabek) — romantik idealist, fidoyi oshiq va fojiaiy qahramon. U muhabbatni mutlaq qadriyat darajasiga ko‘taradi. Uning ismi ham ramziy: “Otash” — olov. U sevgi bilan yonadi va oxir-oqibat olov ichida halok bo‘ladi. Otash so‘zi faqat oddiy o‘t yoki alangani emas, balki inson qalbidagi kechinmalarni, iztirob va muhabbatning yondiruvchi kuchini ramziy anglatadi. Masalan, „Uning ko‘zlarida o‘chib bo‘lmaydigan bir otash bor edi, go‘yo har lahza nimadir uni ichidan yoqayotgandek.“ Bu yondiruvchi otash qahramon hayotiga, qarorlariga va dunyoqarashiga ta’sir qiluvchi asosiy kuch bo‘lib xizmat qiladi. Ramz sifatida otash inson qalbidagi cheksiz kuch va halokatni ham ifoda etadi.

Soliya ikki qirrali obraz sifatida namoyon bo‘ladi: a) Otash xotirasidagi Soliya — sof, ilohiy, yetishilmas timsol. b) real hayotdagi Soliya — oilali, kundalik tashvishlar bilan yashayotgan oddiy ayol. U ramziy ma’noda Vatan, ma’no va orzu timsoliga aylanadi.

Telefon suhbatidagi beparvo ohang — asarning eng og‘riqli nuqtasidir. “ — Soliya!..

— *Seni ko‘rishim kerak... So‘nggi marta, eshityapsanmi?..*

— *Tinchlikmi? Odamni qo‘rqitmay gapiring, Otabek aka...*

— *Kelasanmi? ...*” Otabek yagona sevgisini oxirgi marta ko‘rishni xohlaydi, uni sog‘inadi va intizorlik bilan kutadi. “..*Nihoyat, toshdan sado chiqdi deganlaridek telefonga zabon bitdi.*

— *Assalomu alaykum, Otabek aka. Uzr, kecha o‘tolmadim. Kechqurun qaynimning tug‘ilgan kuniga boradigan edik. Sochimni ertalabdan bo‘yatib oluvdim, deng. Ko‘rmaysizmi, kuni bo‘yi ezib yomg‘ir yog‘di. Uydan chiqolmadim...*” Bu yerda muhabbatning ikki xil talqini to‘qnashadi: Otash uchun muhabbat — umr mazmuni, Soliya uchun esa — o‘tmish xotirasi.

Muallif asarda turli badiiy san’at vositalaridan mahorat bilan foydalanadi. Xususan, ramziy obrazlar — daraxt, olov, yomg‘ir kabi timsollar orqali qahramonning ichki kechinmalari va ruhiy holatini ifodalaydi. Psixologik detallar yordamida obrazning nozik tuyg‘ulari ochib beriladi, ichki monolog esa qahramon qalbidagi iztirob va ziddiyatlarni bevosita ko‘rsatishga xizmat qiladi. Takror va ritmik iboralar matnning emotsional ta’sir kuchini oshiradi, tush motivi esa voqelik va ong osti qatlamlarini bog‘lovchi badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Hikoyada eng muhim ramziy obraz — daraxtdir. Daraxt fasllar almashuvi orqali umr o‘tkinchiligini, barg to‘kilishi orqali ayriliq va so‘nishni, ildizlari bilan sadoqat va sobitlikni ifodalaydi. “*Ilgari ham u daraxt rasmini ko‘p ishlagan, umuman, uning chizgan suratlarining yarmi Soliyaga bag‘ishlangan bo‘lsa, qolgan yarmida daraxt bor edi. Lekin nega bunday, o‘zi ham bilmasdi. Otash Soliyaga bag‘ishlangan yuzlab suratlarini motivini yaxshi anglar edi, biroq daraxt-chi, uning tagma’nosi nima ekan? Sirasi, u daraxtni turli*

Date: 3rd March-2026

ko‘rinishlarda chizgan edi: hamma fasllardagi, hamma ko‘rinishlardagi daraxt rasmlarini solgandi. Nazaricha, daraxt inson ko‘nglidagi keraksiz hoyu havaslarni tashqariga quvib haydardi. Dunyoning o‘tkinchiligi va umrning omonatligi to‘g‘risidagi eng go‘zal, eng ta’sirli qo‘shiq daraxtga tegishli edi. Shoxlarida xoh yaproq bo‘lsin, xoh bo‘lmasin, qat’i nazar, tinglay bilgich — qalb qulog‘i ochiq odamlar uchun daraxtlar hamma vaqt — qishin-yozin hikmat aytadilar, ha...’’² Otash umr bo‘yi daraxt suratini chizadi. Keyinchalik anglaydiki, daraxt uning qalb manzarasi, ichki dunyosidir. “Lekin yana turib qaraganida suratda Soliya yo‘q edi. Shunda u bir sirni tushunib qolgandek bo‘ldi: yuragi muhabbatga to‘lib-toshgan damlarida suratda Soliyani, qolgan vaqtlarda esa daraxtni ko‘rayotgan edi, ajab!”³ Muhabbat kuchaygan damlarda daraxt orasidan Soliya qiyofasi ko‘rinadi. Qalb sovigan paytda esa faqat yalang‘och shoxlar qoladi. Demak, daraxt — Otash ruhining ko‘zgusi.

Asarning fojiaiviy yakunida Otash yana ustaxonasiga qaytadi va o‘z suratlarini benzin sepib yoqib yuboradi. Bu harakat shunchaki rasmlarni yoqish emas, balki uning butun o‘tgan hayotini, chilparchin bo‘lgan umidlarini, iztirobli muhabbatini va hatto o‘zligini yoqish ramzidir. Olov bu yerda vayronkor kuch bo‘lish bilan birga poklanish va yakun timsoli sifatida talqin etiladi. “Otash” nomi – qahramonning ismi va uning fojiaiviy qismati o‘zaro uyg‘unlashib, asarning ramziy mazmunini yanada teranlashtiradi.

Hikoya bir qator muhim falsafiy savollarni o‘rtaga tashlaydi: muhabbat insonni qutqaruvchi kuchmi yoki uni halokat sari yetaklovchi tuyg‘umi? Ideal darajadagi tuyg‘ular real hayot haqiqatlari bilan uyg‘unlasha oladimi? Inson uchun chin ma’no va yashash mazmuni nimada namoyon bo‘ladi? Asarda aynan shu savollar qahramon taqdiri va ruhiy iztiroblari orqali ochib beriladi. Asar ekzistensial ruhda yozilgan bo‘lib, unda insonning o‘lim oldidagi yolg‘izligi, ichki bo‘shlig‘i va umidga so‘nggi bor yopishishi badiiy talqin etiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, “Otash” hikoyasi zamonaviy o‘zbek nasrining estetik izlanishlari va modernistik yo‘nalishlarini yorqin namoyon etuvchi asarlardan biridir. Ulug‘bek Hamdam ushbu hikoyada inson qalbining murakkab va ziddiyatli qatlamlarini ochib berishga muvaffaq bo‘lgan. Qahramon timsoli orqali muhabbatning ikki qirrasini — najot va halokat o‘rtasidagi nozik chegara ko‘rsatiladi. Asar o‘zining ramziy-kompozitsion tuzilishi, chuqur psixologizmi va falsafiy ruhiyati bilan o‘quvchini mushohadaga chorlaydi. Shu bois “Otash” hikoyasi nafaqat fojiaiviy muhabbat tasviri, balki zamonaviy insonning ichki iztiroblari, ma’naviy izlanishlari va hayot mazmunini anglash yo‘lidagi kurashini aks ettiruvchi muhim badiiy asar sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ulug‘bek Hamdamning „Otash“ hikoyasi, www.ziyouz.com, 2025.
2. Bahodir Karim. Ulug‘bekning dil izhori/Uzoqdagi Dilnura. Toshkent –2010.
3. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent –2004.
4. Ulug‘bek Hamdam “Vatan haqida qo‘shiq”, T: Akademi nashr – 2019.

Date: 3rd March-2026

5. Karimov Obidjon. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. "Namangan" nashriyoti – 2016.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

